

Хўжагелди АЛИМОВ,

Ўзбекистон халқаро ислом академияси
Дин психологияси ва педагогика
кафедраси доценти в.б., психология фанлари
номзоди,

Muqaddas Sadriddinova НАКИМОВА,

Ўзбекистон халқаро ислом академияси
2-курс магистранти
5885karan@gmail.com

DINIY E'TIQODNING PSIXOLOGIK VA TASAVVUFİY XUXUSIYATLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СУФИЙСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РЕЛИГИОЗНОЙ ВЕРЫ

PSYCHOLOGICAL AND SUFI FEATURES OF RELIGIOUS FAITH

Annotatsiya: Ishlab chiqarishning intensivlashishi, urbanizatsiyaning kuchayishi, ya'ni yirik shaharlarning vujudga kelishi va u bilan bog'liq asablarning toliqishi, taranglashishi, ekologik buzilishlar, turli hayf-xatarlarning kuchayishi kabi ijtimoiy faktorlar odamlarda umidsizlik, ojizlik, qo'rquv, ertangi kunga ishonmaslik, yolg'izlanish kabi kayfiyatlarni tug'diradi. Bu hil kayfiyat va ruhiy holat kishilarni turli yo'llar bilan bunday vaziyatdan chiqib ketishga undaydi...

Tayanch iboralar: Psixologiya, ruh, nafs, tafakkur, aql, ilm, tasavvuf, diniy e'tiqod, hususiyat, talablar.

Аннотация: Такие социальные факторы, как интенсификация производства, рост урбанизации, то есть появление крупных городов и связанные с этим нервное истощение, напряжённость, загрязнение окружающей среды, повышение различных рисков, приводят людей к отчаянию, слабости, страху, недоверию к будущему, одиночеству. Такое настроение и душевное состояние принуждает людей по-разному выходить из этой ситуации.

Ключевые слова: психология, дух, нафс, сознание, ум, знание, суфизм, религиозная вера, особенность, условия.

Abstract: Social factors such as the intensification of production, the intensification of urbanization, that is, the emergence of large cities and the associated nervous exhaustion, tension, environmental degradation, increasing various risks, lead people to despair, weakness, fear, distrust of the future, loneliness. 'creates

moods like exploration. This kind of mood and state of mind motivates people to get out of this situation in different ways.

Keywords: Psychology, spirit, nafs, contemplation, intellect, science, mysticism(Sufism), religious beliefs, character, requirements.

Psixologiya voqelikning alohida sohasi bo'lmish inson ruhiy hayoti hodisalari, ularning vujudga kelish qonuniyatlari va mexanizmlarini o'rganadi. Ruhiy hayot hodisalariga sezgilar va idroklash, diqqat va xotira, tafakkur va nutq, hissiyot va ehtiros, tasavvur va hayol, iroda va ong kiradi. Ushbu ruhiy hodisalarining barchasini jamlab, "psixologiya – ruhiyat" deb yuritiladi. Ruhiyat va ruh haqida gap ketar ekan, Mavlono Fariddin Attorning quyidagi jumllarini yodga olmay iloji yo'q.

Mavlono Fariddin Attor "Ilohiynoma" asarida

Ruhga murojaat qilib, "Ey ruhi qudsiy, sendadir Rabboniy ruhning amri. Sen hamma narsani qamrab olgansanku, lekin bizdan yiroqsan, ko'zga ko'rinmaysanu, biroq ko'zning o'zidasan... Bizning tushuncha tasavvurimiz, isbotu tasdig'imiz, inkoru raddiyamizdan tashqarisan. Na yerdasan, na osmonda, balki Rabbul olamin huzuridasan" deb ruhni anglash, tasavvur qilish mushkulotlari haqida fikr bildiradi.

Ruhning asosida olti belgi borligi va shular orqali zuhur bo'lishini ko'rsatadi. Bularning har qaysisi o'zi murakkab bir olamdur. Bular:

1. Biri Nafs bo'lib, uning joyi sezgi a'zolaridir. Ilmiy psixologiyadagi beshta tashqi sezgilarni shu birinchi belgilarga qiyos qilsak bo'ladi.

2. Biri Nafsi ammora (shaytoniy nafs) bo'lib, ziddiyatlar shundan. Bu insonni turli gunoh ishlarga buyuruvchi, yetaklovchi, badan manfaatlari va huzurlanishlarini ta'minlovchimoddiy ehtiyojlarning ko'rinishidir.

3. Biri Aqldir. U aqlga muvofiqlikni, mantiqni boshqaradi. Bu belgi ilmiy psixologiyadagi "Tafakkur" mavzusiga muvofiq kelib, insonning mantiqiy, ijodiy, ilmiy tafakkurlash jarayonlari sifatida namoyon bo'ladi.

4. Biri Ilmdir. U turli ma'lumotlar, bilim to'plash bilan band. Bu "hotira" jarayoniga nisbatan mos kelib, ilm o'rganish, ilmiy va ma'rifiy, siyosiy iqtisodiy, sohalar bilan bog'liq axborotlar to'plashdan, ularni saqlash va kerak paytda qayta tiklashdan iborat bo'lgan ruhiy faoliyatga muvofiqdir.

5. Biri Faqrdir. Doimo fano, ya'ni yo'qlik istaydi. Ba'zi Mutasavvuflarning fikriga ko'ra bu nafs lavvoma bosqichi bo'lib, insonda tanqidiy tafakkurning kuchayishi, o'zidagi xato, kamchiliklarni anglashi, o'ziga tanqidiy qarab, o'zidan norozilik, o'zidan qoniqmaslik, kamsitish va h.k. shaklida namoyon bo'ladi.

6. Biri Tavhiddir. Yagona zotga-intilish, uni istash. Bu oliy ong darajasi bo'lib, ilm fanda ta'riflanadigan o'z-o'zini tarbiyalash, taftish qilish orqali nafsini o'ldirgan, dunyoviy ehtiyojlardan forig' bo'lgan komil insonlar darajasi. Allohning jamoli uning doimiy ehtiyojiga aylanadi.

Ushbu olti asos Ruh farmonidir. Ruh, deb ta'kidlaydi F. Attor, insonning ichidadir. Shuning uchun har bir inson o'z ichiga safar qilmog'i, o'zini chuqurroq anglashi zarur.[4:162] Ishlab chiqarishning intensivlashishi, urbanizatsiyaning kuchayishi, ya'ni yirik shaharlarning vujudga kelishi va u bilan bog'liq asablarning toliqishi, taranglashishi, ekologik buzilishlar, turli havf-xatarlarning kuchayishi kabi ijtimoiy faktorlar odamlarda umidsizlik, ojizlik, qo'rquv, ertangi kunga ishonmaslik, yolg'izlanish kabi kayfiyatlarni tug'diradi. Bu hil kayfiyat va ruhiy holat kishilarni turli yo'llar bilan bunday vaziyatdan chiqib ketishga undaydi. Masalan: Alkogolizim, narkomaniya, suitsit (o'z joniga qast qilish). Lekin bu hildagi "muammolardan halos bo'lish" yo'li vaqtinchalik ekanligi, keyinchalik vaqt o'tishi bilan o'z-o'zidan namoyon bo'la boshlaydi. Shunday vaziyatda tashqi olamdan madad kuchi izlashga intilish kuzatiladi. Bu kabi holat ibtidoiy davrni yodga olishga undaydi. Tabiatning turli to'siqlariga duch kelgan ibtidoiy davr odami yashash uchun kurashda, avvalambor, o'z kuchiga suyanan bo'lsa, kuchdan qolib, qarishi davomida qandaydir g'ayritabiyy kuchlardan quvvat izlay boshlaydi. Shu tariqa asta-sekin dastlabki diniy e'tiqod vujudga kela boshlagan. Bu esa ma'lum darajada qo'rquv va xavotirlikdan xalos bo'lishga intilishdan yuzaga keladi. Diniy e'tiqodning psixologik tamoyillarini o'rganishda din psixologiyasi fani asosiy manba sifatida e'tirof etiladi. Din psixologiyasining rivojlanishiga salmoqli ta'sir korsatib, yangi yo'nalishni belgilab bergan taniqli olimlardan biri amerikalik psixolog Vilyam Jeyms (1842-1910 y.) hisoblanadi. U o'zining "Serqirra diniy tajriba" asarida diniy e'tiqodlarni tahlil etishga psixologiya fani qonuniyatlari asosida yondashadi. Bunda individning dindan "madad" olishi va sub'ektiv

qoniqish hosil qilishi nuqtai nazaridan baho berib, uni asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, dinning manbai insonni o'rab turgan dunyoda emas, balki uning o'zining ichidadir. Lekin intellektual qobig'ida emas, balki ruhiy-emotsional qobig'idadir. Shu bois ham individ, o'zidagi diniy maylning mavjudligini doimo ongli ravishda aks ettiravermaydi.[11:42] Z.Freyd diniy amallar va tasavvurlarning vujudga kelishini inson ehtiyojlari bilan bog'laydi. Xususan, din insonning o'zini tabiat kuchlaridan himoyalash, qondirilmagan mayllar va istaklar bilan, ijtimoiy etishmovchilik, turli yo'qotishlarni kompensatsiya(to'ldirish) qilish, o'zini aybdorligini his etish kabi ehtiyoj va zaruriyatlar asosida kelib chiqqan, deb hisoblaydi. Shunga ko'ra, Freyd dinni alohida olingan insonning tug'ma mayillari bilan bog'lab tushuntiradi. Maks Sheller fikricha, din psixologiyasining asosiy vazifasi quyidagicha ifodalanadi: birinchidan, insonlarga oxirat tushunchasini singdirish. Chunki insonni eng ko'p o'ylantiradigan narsa o'limdan keyingi hayot va yo'q bo'lib ketmaslik hodisasidir. Ikkinchidan, insonlar va dunyodagi narsalar yaratuvchining ijodi ekanligini va ularni hurmat qilish va e'zozlashni singdirishdir. Uning fikriga ko'ra, din dunyoga nisbatan munosabatda, insonlarni turli xil guruhlariga bo'lib tashlaydi. Shulardan biri, dunyoni sevadiganlardir. Chunki bu dunyo oxiratning ekinzoridir. Ya'ni bu dunyoda nimani eksang, oxiratda shuni o'rasan, degan e'tiqodga to'g'ri keladi. Bu yondashuv ko'pincha, dinga ishonuvchilarning yondashuvidir. Yana biri dunyoni yomon ko'radiganlar bo'lib, aslida ular dunyoni juda ham yaxshi ko'radilar. Lekin mol-mulk qo'llarida bo'lmagani uchun bu narsa ularda nafrat uyg'otadi. Bu toifaning ichida dinga ishonuvchilar va ishonmaydiganlar ham bo'lishi mumkin.[11:47] Diniy e'tiqodning psixologik xususiyatlari haqida qisqacha to'xtalib o'tildi. Endi esa diniy etiqodning islom dini nuqtai nazaridan tasavvufiy hususiyatlariga oid ma'lumotlarni yirik tasavvuf olimlari qarashlaridan kelib chiqib havola qilinadi. Tasavvuf ilmining chuqurligi bevosita psixologiya ilmi bilan chambarchas bog'liqligi bilan belgilanadi, ikkala ta'limotda ham "ruh ilmi" etakchilik qiladi. Boshqacha qilib aytganda, biri birini to'ldiradi. Dunyoviylikdan kechib, faqat Allohga bog'lanish, unga yetishish yo'lida cheksiz riyozatlar chekish, ulkan ishq bilan unga intilish, ruhiy va ahloqiy chiniqish tasavvuf ta'limotiga xosdir. "Islom entiklopediya"sida,

tasavvuf, sufiylik-islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi qarash, deb izohlanadi. Tasavvuf islom dini zaminida vujudga kelgan avliyo va shayxlar e'tiqodidan tug'ilgan ta'limot bo'lib, turli tariqatlar (yo'llar) asosida o'zini va Allohni anglash ilmi hisoblanadi. Shuning uchun bu ilmni "ruh ilmi" ham deyiladi. Buning uchun inson avvalo o'zining jismoniy, ruhiy olamini mushohada qilib, bilib va his etib boradi. Islomda sufiylik oqimi sakizzinchi asr oxirida shakllana boshlandi, deb qabul qilingan. Ilk sufiylikni tarki dunyo qilgan zohidlar tashkil qilishgan bo'lib, ko'p dunyoviy narsalardan o'zlarini cheklab, o'zini taqdiri ilohiyga topshirib, tavakkul qilishgan. O'z qalblarini chuqur mulohaza bilan o'rganish va uni o'zlashtirish kabi ruhiy holatlar bilan shug'ullanishgan. Bu ilmning asoschisi Basralik Hasan Basriy bo'lib, u ruhshunos va islomiy bilimlarning yetakchisi bo'lgan. U va uning shogirtlari Xudoga astoydil muhabbatda bo'lish, unga yaqinlashishga kishilarda ruhiy intilish bo'lishligiga da'vad qilishgan.

Basra maktabidan tashqari Bag'dod va Xuroson maktablarida tasavvuf ilmi rivojlanib, ular Xudoga qanday munosabatda bo'lish va ruhiy kamolotga erishish yo'llarini ko'rsatib berdilar. Bu yo'l to'rt bosqichdan iborat. Birinchi bosqich-shariyat. So'fiylar avval shariyatni yaxshi o'zlashtirishlari va unga qat'iy bo'ysunishi kerak. Ikkinchi bosqich-tariqat. Bunda murid (sufiy) o'z piri-murshidiga qat'iy itoat etishi, o'z shaxsiy istaklaridan voz kechishi shart. Uchinchi bosqich-ma'rifat. Bunda butun olam Xudoda mujassam bo'lishi yoki butun koinot Alloh tajallisidan iboratligi, ko'p narsalar mohiyati aql bilan emas, qalb bilan –intuitiv anglab yetiladi. To'rtinchi bosqich-haqiqat. Sufiying shaxs sifati tugab, uning "Men"i Xudoga singib, abadiylikka erishadi. Bunga maxsus ruhiy va jismoniy harakatlar, ibodat va sig'inish orqali erishish mumkin deb hisoblashgan.

Endi, Xojagon va Naqshbandiy tariqatidagi Abduholiq G'ijduvoni va Bahouddin Naqshband e'tirof etgan rahsha (qoida) larning qisqacha psixologik taxliliga to'xtalib o'tsak.[7:143] Har bir rahsha muborak oyat va hadislar asosida yatilgan.

1. "Xush dar dam" (xush-aql, dam-nafas). Ichimizdan chiqayotgan har bir nafasdan ogoh bo'lib, hushyorlik va huzurbaxshlik qilish, Haqqa qilinayongan ibodatlarda ham, dunyoviy ish harakatlarda ham g'aflat, illatlar aralashmasligi darkor. Bu ruhiy-hissiy uyg'unlik, insonni iztiroblarga soladigan turli stress holat, ruhiy

bezovtaliklardan saqlab, o'z kuch va imkoniyatiga ishonch, xotirjamlik, dadillik kabi fazilatlarini shakllantiradi.

2. "Nazar bar qadam" (nazar qadamda). Bu qoida so'fiyni har bir qadamidan, xatti-xarakatidan ogoh bo'lishga, Allohga gunohkor bo'lishiga sabab bo'ladigan yo'lga qadam bosmaslik, o'zini psixologik jihatdan qattiq nazorat ostiga olishni taqozo etadi. Ko'zni nomaqbul, harom narsalar, ishlarga qaratmaslik, tilni yolg'on, g'iybat, behuda so'zlashdan tiyish, quloqni axloqsiz so'zlarni tinglashdan saqlash, g'iybatlarga kar bo'lish, qo'l nopok harakatlardan holi bo'lishi, halol bolish kabilar.

3. "Safar dar vatan (Vatan ichra safar). Bu shunday amaliy va ma'juziy safarki, sufiy o'z ruhiy olamini safar qilib, o'zidagi barcha salbiy illatlarni ko'radi, ulardan mosuvo bo'lishni angelaydi, ehtiyoj sezadi va unga harakat qiladi. Bu ruhiy safarga inson idrok, hotira, tasavvur, tafakkur va irodani safarbar qilish orqali erishadi.

4. "Xilvat dar anjuman" (zohiran xalq bilan, botinan Haq bilan). Xalq bilan bo'lib, ularning dardlariga sherik bo'lish Alloh roziligi yo'lida xalqqa xizmat qilish, fikru-zikri Haqda bo'lish, bu qoidaning mazmunini tashkil etadi. Zero, inson o'zida boshqalarga nisbatan oliyjanob, shavqatli munosabatlarni namoyon qilmas ekan, u Allohni seva olmaydi va Haqqa qilgan ibodati ko'zbo'yamachilikdan iborat bo'ladi. Shuning uchun avval xalqqa, jamiyatga foyda keltirishga o'rganishi, undan keyingina botinan Haq bilan bo'lib, pokiza qalb ila ibodatga mashg'ul bo'lish kerak.

5. "Yodkard" (yodga olish). Til va dilni bir lahza bo'lsa ham Alloh zikridan qoldirmay, Haqdan ogoh bo'lib, uni zikr qilish. Tariqatdagi bu qoida jarayoni ikki yo'nalishni, avvalo, botinning Allohni hotirada tutishi va uni qalbga muhrlashi bo'lsa, ikkinchi tomondan, sufiy kundalik harakatlarini Alloh talab qilgan pok munosabatlar asosida amalga oshirishni nazarda tutadi. Mohiyatan, "Dil ba yoru, dast ba kor".

6. "Bozgasht" (qaytish) qoidasi avval boshiga, ya'ni Allohga qaytishni anglashini bildiradi. Sufiy zikrni takrorlaganda, uning ma'lum sanoqlarida "Mening maqsadim Sensan, Sening rizoligingni so'rayman", deydi. Bu "Bozgasht" kalimasi yaxshi va yomon fikrlarni inson xotirasidan ketgazib, zikrni holis qiladi. Zohid kalimalarni aytayotganda, mabodo, chin dildan aytmayotganini

sezsa ham, uni takrorlashni tark etmasligi lozim. Bora-bora u chin qalbdan chiqa boshlaydi.

7. “Nigohdosht” (saqlash) diqqat (nigoh)ni ma’lum narsaga uzoq vaqt kuchli to’plab turish va muayyan bir vazifalar bilan mashg’ullikni anglatadi. Tasavvufiy mazmunda Allohni, uning fazli karamini yodda saqlab zikr qilish va boshqa narsalarga chalg’imaslikni bildiradi. Mazkur qoida sufiydan ichki (botiniy) komillikka erishish yo’lida diqqat va irodaviy harakatlar bilan har bir nomaqbul fikro’ylardan xalos bo’lishini talab qiladi. U qalbidagi fikr va tasavvurlarni mushohada(muroqaba) qilib, hech bo’lmaganda, bir-ikki soat vaqt orasida diqqat va tasavvurlarni boshqa narsalarga yubormasligi, xotirani parishon qilmasligi kerak.

8. “Yoddosht” (Yodda saqlamoq, xotirada saqlash). Har lahza Allohdan habardor bo’lish, Haq taoloni yodda tutish. Bu psixologik qonuniyatga kora, xotirada saqlanayotgan narsalarning davomiyligini ta’minlaydi, Unga (Allohga) nisbatan muhabbatni qallda mustahkamlaydi, naqshlar qo’yadi. Haq taoloni chuqur hurmat va muhabbat bilan yodda saqlash, o’zining ham har doim Alloh taolo nazarida ekanligini bilish, insonni nopok narsalardan saqlaydi. O’z xatti-harakatlari, xulqi va muomalalarini nazorat qilib turishga o’rgatadiki, bu xulq uning uchun dominant darajasiga aylanadi.

9. “Vuqufiy zamon”(zamondan voqiflik). Har bir daqiqa vaqtni g’animat bilib, undan unumli va maqsadlifoydalanish, vaqtni qanchasi hayrli va savob ishlar bilan o’tganligini sarhisob qilib turish,ogoh bo’lish qoidasidir. Inson umri muayyan vaqtlar bilan cheklanganligini anglagan holda, uni Alloh zikri va ijtimoiy foydali ishlarga yo’naltirilishi- Haq taolo ne’matlariga shukronalar keltirishdir. Aksincha, Aksincha, g’afat bilan otgan bo’lsa, tavba-tazarru qilish, istihfor aytishdan iboratdir. Vaqtim ko’p deb, uni behuda narsalarga sarf qilmaslik, g’afatda qolmaslik oqil va hushyor mo’minning fazilatidir.

10. “Vuqufiy adadiy” (sanoqqa rioya).Zikrda adadga rioya qilish “Vuqufi adadiy” deyiladi. Ya’ni har bir qilinayotgan zikr muayyan tartib va adadga rioya qilib, bajarilishi nazarda tutiladi. Zikr qiluvchi (zokir) kalimani bir necha marta takrorlashi mumkin. Masalan, La ilaha illalloh-Allohndan boshqa iloh yo’q, kalimasini, yohud “Ihlos” surasini zokir bir nafasda uch marta, yeti marta, yoki undan ham ko’p takrorlashi mumkin.

Likin bir nafasda takrorlanayotgan zikr toq qilib tugatilishi lozim. Zikr arabcha so’z bo’lib, yodga olish, xotirlash ma’nolarini bildirib, tasavvufiy ma’noda Haqqa yetishish yo’li sifatida uni yodga olishni, nom va sifatlarni fazlu karamlarini anglatuvchi kalimalarni takrorlashdir.

11. “Vuqufiy qalbiy” (Voqif qalb).Bu rashhaning mohiyatida ikki ma’no mavjud. Avvalo zohidning qalbi. Alloh taolodan doimo ogoh, voqif bo’lib turishi, ikkinchidan, o’z qalbi holatidan ham xabardor bo’lishi va qalbni mudom zikr bilan mashg’ul qilishi lozim. Insonning barcha a’zolari harakat va mashqlantirish orqali takomillashtirib borganidek, qalb ham Allohni zikr qilish bilan takomillashib boradi va bu amallardan orom oladi. Zikrning davomiyligi barobarida zikr qalbga muhrlanib qoladiki, o’pkaning nafas olishi tabiiy kechib, kishidan diqqat-e’tibor qilishni talab qilmaganidek, qalb ham Alloh zikrini mudom davom ettiraveradi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga kelish mumkin. Diniy e’tiqod:

Birinchidan, qo’rquv va havotirlikdan halos bo’lishga va hotirjamlik qobig’i shakllanishiga yordam beradi.


Ikkinchidan, kompensatsiya vazifasini o’taydi. Shaxs hayotidagi barcha boshliqlarni to’ldiradi.

Uchinchidan, shaxslardagi vijdon bilan bog’liq bo’lgan hislarni tug’ilishiga zamin hozirlaydi.

To’rtinchidan, shaxslar uchun hamisha mavhum bo’lib kelgan “ohirat” tushunchasi, savol-javob, har bir qilingan amallar sarhisobi borli haqida xabar beradi.

Beshinchidan, dunyo bir ekinzor va ohirat esa hirmonlar ombori ekanligini uqtiradi.

Diniy e’tiqod shaxsdan nimalarni talab etadi? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin:




Hushyorlik. Har qanday holatda ham hushyor bo’lish gaflatga berilmaslik. Har qanday hushyor shaxs stress holatidan ozod yashaydi. Doimo dadil bo’lishga harakat qiladi.

Ogohlik. O'z-o'zini nazorat qilovchi shaxs, butun vujudi bilan gunohlardan forih bo'ladi, o'zini har bir tanasidagi a'zoni gunohlardan saqlaydi.

Poklik. Har bir diniy e'tiqodli shaxslardan eng birinchi navbatda talab qilinadigan talab poklik hisoblanadi. Diniy e'tiqod bilan bog'liq qalb va tana pokligi uyg'unligida bajarilgan amallar eng maqbul amallar sanaladi.

Zokirlik. Har qanday holatda, sharoitda, vaqtda ham yaratuvchining zikrida bo'lishi. Ya'ni, shaxs nima ish bilan band bo'lishidan qat'iy nazar, yaratganni yodga olishi tushuniladi.



Maqsadning aniqligi deganda, har bir shaxsning maqsadidagi aniqlik "Haq roziligiga erishish".

Vos kechish. "Bir narsaga erishish uchun, boshqa bir narsadan vos kechish" qoidasiga amal qiladi. O'zini yod narsalardan, yod g'oyalardan vos kechishga undaydi.

Diqqatlilik. Diqqatni ko'proq ibodat bilan bog'lashga undaydi.

Saqlash. Har bir o'tayotgan vaqtdan unumli foydalanib, vaqtni saqlab qolishga urunish.

Tozalash. Shaxs o'zidagi, qalbidagi, ongidagi barcha hiralashgan, dog'i qolgan illatlardan o'zini tozalashga intiladi. Ibodfat chog'ida har bir dog'ni asta-sekin tozalanishiga guvoh bola boshlaydi.

Nazorat. Shaxsdagi eng buyuk hislat-o'z-o'zini nazorat qilish.

Voqiflik. Shaxsning haqdan va o'z-oz'idan voqifligi tushuniladi.

Tartiblilik. Shaxslarning ibodatda, zikrda, amalda tartiblilik nazarda tutiladi.

Shukur va sabr. Har bir shaxsning hayoti mobaynida boshidan kechirgan yaxshi va yomon taqdir kechinmalarining bari, yaratgan ihtiyorida ekanligi va bu kechinmalarga shukur va sabr qilish nazarda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ardashkin I.B. Psixologiya religii: uchebnoye posobiye Tomsk.: Izd-vo Tomskogo politexnicheskogo universiteta, 2009. -276-s
2. Berdiyayev N.A. Новое религиозное сознание и общественность. –М.: Канон, 1999. -464-s
3. Bahouddin naqshband. Avrodi baho'iya. -B.: 2000.
4. Fariduddin Attor. Ilohiynoma. –T.: Kamalak, 1994.
5. G'oziyev E. Umumiy psixologiya -T.: 2010.
6. Gegel G. Filosofiya religii. V 2-x ch. –M.: 1976-1977.
7. M.Xolnazarova. Baxouddin Balogardon ta'limoti. -G.: 2009.
8. Maxmud Asad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. -T.: Cho'lpon, 1998.
9. Turar Usmon. Tasavvuf tarixi. –T.: Istiqol, 1999.
10. Valiyev B. Din psixologiyasining rivojlanishida tadqiqot metodlarining ahamiyati. // Toshkent islom universiteyi. –T.: Ilmiy-tahliliy axborot, 2013. 47-50 b.
11. Valiyev B., Mamatov M. Din psixologiyasi. // TIU Islomshunoslik ilmiy tadqiqot markazi –T.: Movarounnaxr, 2014.